Shonazarov Jamshid Shuhratovich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.)

DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MEZONLARNI TASHKIL ETISH MUAOMMOLARI VA YECHIMLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat va jamiyat boshqaruvida davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muammolari va yechimlari qaratilgan masalalarni tadqiq etishga bag'ishlanadi. Boshqaruv jarayonida davlat xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy qiyofasinini yuksaltirish va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar*: davlat, jamiyat, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, davlat xizsatchisi, davlat va jamiyat boshqaruvi, ma'naviy-axloqiy qiyofa, mamlakat, millat, siyosat, siyosiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar.*

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КРИТЕРИЕВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. *Статья посвящена исследованию вопросов, связанных с организацией и решением духовно-нравственных критериев в деятельности государственных служащих в сфере государственного и общественного управления. Анализируется процесс повышения морально-этического облика государственных служащих и проблемы, связанные с этим.*

Ключевые слова: *государство, общество, управление, управленческая деятельность, государственный служащий, управление государством и обществом, духовно-нравственный облик, страна, нация, политика, политические отношения, моральные нормы, моральные ценности.*

CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE IMPLEMENTATION OF MORAL AND ETHICAL STANDARDS IN CIVIL SERVICE ACTIVITIES

Annotation. *This article is devoted to the study of the problems and solutions of the organization of spiritual and moral criteria in the activities of civil servants in the management of the state and society. The problems of improving the spiritual and moral image of civil servants in the management process and related problems are analyzed.*

Keywords: *state, society, management, management activities, civil servant, state and society management, spiritual and moral image, country, nation, politics, political relations, moral norms, moral values.*

Kirish. Mamlaktning ravnaqi insonlarning e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchi hamda milliy istiqlol g'oyasi, maqsadi, vazifalarini anglashi bilan o'zaro mushtarak holda keladi. Tarixiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyati abadiy bo'lsa-da, u xalqlar xohish-irodasiga ma'lum darajada bog'liq.davri tarixiy vaqt va makon o'zgarishlari tufayli xilma-xil voqealarga boy bo'ladi. Millat ravnaqi insonning o'z qadr-qimmatini, sha'nini, or-nomusini umummilliy darajada anglash tuyg'usi bilan hamohang. Lekin, bu hamma vaqt ham bir xil kechgan emas va o'ziga xos murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida namoyon bo'lgan.[1]

Aynan ana shu ijtimoiy-ma'naviy hodisalar hosilasi davlat xizmatchilari boshqaruv faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muommolari va yechimlari bilan belgilanadi. Uning murakkabligi esa milliy taraqqiyotning yuksalishi va tarixiy fojialarini siyosiy nuqtai nazardan anglash va va undan saboq chiqara olishida ifodalanadi. Zero, har bir millat o'z davlatlatchilik boshqaruvi tarixini adolat, tenglik, axloqiylik to'g'risidagi ideal g'oyalari asosida tashkil etar ekan, uni ijtimoiy-siyosiy hayotida tashkil eta olishi yuksak e'tiqod talab etuvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Masalaning murakkabligi davlat va jamiyat boshqaruvidv yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarni o'z faoliyatining ustuvor asosi qilib olgan fidoyi, millatparvar, mas'uliyatli, zamon talablari darajasida fikrlay oladigan va uning dardini o'z dardi bilan uyg'un ko'ra oladigan, milliy g'oya va mafkura ruhi bilan kamol topgan kadrlarni shakllantirish muammolarini hal etish bilan izohlanadi.

Albatta, davlatchilik boshqaruvi xalqlar tarixida har doim ham bir xil va barqaror kechgan emas. Bunga milliy davlatchilik asoslarini yaratish va mustahkamlashda yetarli bilimga, malakaga, mas'uliyat va fidoyilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan davlat xizmatchilari – rahbar kadrlarning boshqaruv sahnasiga kelib qolganligi, eng taassufli jihati ana shu shaxsiy kamliklarni tezda anglab bartaraf etib, ishga kirishish uchun shijoatning sustligi kabi illatlar sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zero, har bir millat davlatchilik boshqaruvi istiqboliga to'siq bo'layotgan illatlarning ro'y-rost tan olsagina, shu tariqa, uni bartarf etishga iroda qilsagina, yuksaladi. Ma'naviy yangilanish turli tadbir, vositalarni qo'llab millatni g'aflatdan – hushyorlikka, bilmaslikdan – bi-

[1] Эргашев И. Миллий камолот йўли. "Жамият ва бошқарув", 2001, 4-бет.

limga, noma'lumlikdan – ma'lumlikka, zarardan – foydaga, savoldan – javobga, muammodan – yechimga, kambag'allikdan – boylikka olib o'tish yo'llaridan biridir. Inson omilini ana shu muammolarni yechish uchun eng zarur bo'lgan fazilatlar bilan qurollantirishimiz kerak. Ana shulardan biri jasoratdir. [1] Darhaqiqat, bugun milliy davlatchiligimiz tarqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv asoslarini yaratish va mustah-kamlash ana shu mexanizmning richagi hisoblangan davlat xizmatchilari – rahbar kadrlarni, M.Qur'onov ta'kidlaganlaridek, eng zarur bo'lgan fazilatlar bilan qurollantirish, jasorat ruhi bilan tarbiyalash muammo yechimining asl mohiyatini tashkil etadi. Asl sabab ham bugungi davlat boshqaruvi sohasidagi davlat xiz-matchilari faoliyati va salohiyatida ana shu jasorat tuyg'usining yetishmasligi, shijoatning yo'qligidir. Ayni paytda, davlat xizmatini tashkil etish, boshqaruvga xos bo'lgan mahoratli usullarni ishlab chiqish tvatshu kabi faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmachilarining jasorati millat dardini anglash va so'zda sobitlik, e'tiqodli bo'lish timsollari orqali namoyon bo'ladi. So'zda sobitlik va faoliyatda e'tiqodli bo'lish davlat xizmatchilariga nisbatan o'lkan mas'uliyat yuklaydi. Mas'uliyatning anglash va shu faoliyat tuyg'usi bilan vazifaga kirishish kasbga sodiqlik shart va talablaridan biri bo'lgan millatni sevish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, burchga sadoqat kabi tuyg'ularning yuzaga keltiradi va bunday tuyg'ularning harorati xodimning xizmatdan rohatlanish hissini yuzaga keltiradi.

Bugun rivojlangan davlatlarning demokratlashuv jaryonlari natijalariga nazar soladigan bo'lsak, taraqqiyotning asosini iqtisodiy texnologik rivojlanish emas, balki murakkab axloqiy evrilishlar va inqiroziy holatda tafakkur yangilanishga erishishdagi muammolarlarda namoyon bo'ladi. Jamiyatda madaniy-texnik taraqqiyotning axloqiy mohiyatini anglamasdan ana shu yo'lda millat birlashmasdan, u hech qachon yuksalmaydi. Chunki har qanday yuksalish milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Bunday axloqiy siyosiy kuch jamiyat rivojiga to'siq bo'lib kelgan eski tartiblarni o'zgartirishga xizmat qiladi.[2] Bugun maqsad ana shu shunday tartibotlardan xoli bo'lgan milliy mentalitetni, milliy o'zlikni, eng muhimi, milliy ruhiyatni o'zida mujassam etgan davlatchilik tartiblarni shakllantirishdir. Bunday tartibotlarni shakllantirish va amliyotga tatbiq etish davlat va jamiyat boshqaruvining yangi ko'rinishlarini milliy davlatchiligimiz an'analaridan andoza va namuna olib va uning fojialariga sabab bo'lgan oqibatlardan saboq chiqargan holda amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Itimoiy-falsafiy ta'limotlarda bunday amaliy faoliyatlarning ko'pgina hollarda foyda berganligini, ba'zan o'zini oqlamaganiligining guvohi bo'lamiz. Bunday holatlarning yuzaga kelishining birlamchi va asosiy sababi, davlat siyosatining millat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashmaganligida, davlat xizmatchilarining hokimiyatga intilishiga bo'lgan hirslarining kuchliligida, millat va xalq taqdiri o'z holiga tashlab qo'yilganligi oqibatlarida ko'rishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, hokimiyatni harakat keltiruvchi davlat xizmatchilarining batamom ana shu hirs va intilishlardan, g'ayriaxloqiy talab va istaklardan holi bo'lishlari lozimligi talab etiladi. Ya'ni, faoliyatda faqat adolat, tenglik axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi, millat va xalq manfaatiga nisbatan jumardlik asosida yondashuv kabi fazilatlar nazarda tutiladi. Shu jihatdan mavzuning tahliliga nisbatan chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, axloqiy qadriyatlar davlat boshqaruv tizimini shakllantiriga va rivojlantirishga qaratilgan ta'sir mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Bunday ta'sir davlat boshqaruvini manfaatli tarzda shakllantirishda, siyosiy qarorlarni qabul qilish va ijro etish ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, axloq barcha individning manfaatlarini inobatga olishni talab qilsa, siyosat umumxalq manfaatlarini birlamchi tarzda ko'radi. Bunday jarayonlarning o'zaro bog'liq jihatlarini topish, ya'ni siyosiy hokimiyat tizimini tobora fuqaro darajasiga tushirish davlat boshqaruvining axloqiy tamoyillarga amal qilish ehtiyojini uqdiradi. Shuning uchun fuqaroning davlat boshqaruvi bilan bog'liq jarayonlarga real ishtirokini ta'minlash yoki ana shu ishtirokning huquqiy imkoniyatlarini yaratish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda davlat organlari xizmat madaniyatida hurmat, adolat va haqiqatga suyanish muhitini yaratish uchun xizmatchilarga falsafiy bilimlarni kengroq o'rgatishni joriy etish, mulohaza va munozaralar, fikr almashish va umumiy xabardorlikni oshirish maqsadida xodimlar o'rtasida falsafiy mavzularda muntazam muhokama va munozaralar tashkil etish davlat xizmatchilarining ijtimoiy dunyoqarashni anglashlariga yaxshi ko'maklashgan bo'lar edi. Davlat xizmatchilari o'z qarorlari va harakatlarining jamiyat va alohida fuqarolar uchun oqibatlarini bilishlari, ularning yanada mas'uliyatli va axloqiy fe'l-atvorli bo'lishlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, falsafiy bilimlar davlat xizmatchilarining ma'naviy ta'sirli faoliyatini sezilarli darajada boyitib, tanqidiy yondashuv, axloqiy fikrlash, strategik qarash va inson tabiatini tushunishni rivojlan-

[1] Қуръонов М. Жасорат. "Халқ сўзи", 2003, 31 январь.
[2] Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ. Т., "Фан", 2005, 65-бет.

tirishga katta hissa qo‘shishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ularning ish sifati va fuqarolar ishonchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat xizmatchisi, avvalo, shaxsdir, insof va halollik kabi shaxsiy fazilatlar esa axloqiy madaniyatning asosiy mezonidir. Ushbu fazilatlarga ega bo‘lgan xodimlar axloqiy harakatga va to‘g‘ri qaror qabul qilishga moyil. O‘z harakatlari uchun mas’uliyatni zimmaga olish va qiyin vaziyatlarda o‘zini tuta bilish yuqori axloqiy madaniyatni saqlash uchun muhimdir. Shu kabi davlat xizmatchisida tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalari uchun ta’lim olishga zaruriyat bor,[1] axborot va ma’lumotlarni samarali tahlil qilish, faoliyatga doir vaziyatlarni baholash qobiliyati esa oqilona va axloqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Xizmatchining muloqot ko‘nikmalari esa hurmat va tushunishga asoslangan hamkasblar va fuqarolar bilan samarali muloqot, muomila madaniyati hamda ishonchli munosabatlarni o‘rnatish va axloqiy madaniyatni saqlashga ko‘maklashadi. Xizmatchi ham xohlasa-xohlmasa, el qatori rivojlanish istagida faoliyat yuritadi. Shuning uchun doimiy shaxsiy va kasbiy o‘sish uchun motivatsiya, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z faoliyatining yangi qirralarini o‘rganish istagi axloqiy madaniyatni rivojlantirishida muhim sanaladi.

Xizmatchining fuqarolar ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini anglashi, hisobga olishi davlat va jamiyat o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi, bu, ayni vaqtda, fuqarolarning davlat organlari faoliyatidan qoniqishini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy fikrlash turli tomonlarning motivlari va manfaatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu nizolarni samarali hal qilish va konsensusga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xizmatchi tanglikni pasaytirishi mumkin, vaziyatni turli nuqtayi nazardan ko‘rish qobiliyati qarama-qarshiliklarni yumshatishda va ijtimoiy keskinlikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bir qator ilmiy tadqiqotlarda davlat xizmatchisining ijtimoiy fikrlashi, ma’naviy-axloqiy tafakkurining keng ekanligi davlat xizmatida “integratsiyalashgan yondashuv”ning rivojlanishiga yordam berishi ham ta’kidlangan.[2] Bu to‘g‘ri yondashuv bo‘lib, xizmat jarayonida ijtimoiy omillarni hisobga olish barcha tomonlarning manfaatlariga mos yanada oqilona va muvozanatli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Davlat xizmati tushunchasi huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzulmani axloqiy me’yorlar atrofida umumlashtirib, madaniy boylik tashuvchi sifatida odamlarni odob-axloq qoidalariga rioya qilishga yo‘naltiradi. Shuning uchun davlat xizmatining barqarorligi va ishonchliligi mansabdor shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligiga, balki ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ham bog‘liq. Davlat xizmati tizimida kadrlar siyosatining maqsadlari,[3] ma’no va me’yorlari ijtimoiy xarakter va yo‘nalishning to‘g‘ri shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sabab odob-axloq qoidalari davlat xizmati xodimlarini shakllantirishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Kadrlar ishi yetarli darajada subyektiv, unda hamma vaqt shaxsiy qarashlar elementi mavjud. Bu esa nafaqat huquqiy, shu bilan bir qatorda, odob-axloq omillari uchun ham harakat maydonidir.

Jamiyatning barcha qatlamlari uchun birdek daxldor bo‘lgan odob-axloq an’analari ongning o‘ziga xos shakli bo‘lib, u ham, o‘z navbatida, davlat xizmati sohasidagi yondashuvlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy madaniyatning davlat uchun ham, jamiyat uchun ham umumiy xususiyati shundaki, xizmatchining an’analar, odatlarga suyanishi, jamoatchilik fikrini tinglash kabi vazifalariga asos bo‘ladi. Inson kasbiy faoliyatining har qanday turida ijtimoiy axloq xodim axloqini tartibga soladigan korporativ kasbiy etikani shakllantiradi. Kasbiy etika esa boshqaruv tizimi, eng avvalo, davlat xizmati uchun alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmati etikasi, kasbiy etikaning bir ko‘rinishi sifatida o‘zida insoniy munosabatlarning alohida xiliga taalluqli bo‘lgan ma’naviy odob-axloq me’yorlari tizimini ifodalaydi. Davlat xizmati etikasi odob-axloqi mohiyatini ifodalaydigan qoidalar va me’yorlarni umumlashtiradi, shuningdek, uning xizmatchilari fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq munosabatlariga doir ma’naviy talablarni o‘zida jamlaydi. Davlat xizmatining odob-axloq qoidalari deganda, davlat xizmatida bo‘lgan xodimning o‘zi xizmat ko‘rsatayotgan jamiyat, davlat va uning fuqarolarining huquqi, erkinliklari va qonuniy qiziqishlarini himoya qilishga taalluqli talablarini ifodalaydigan odob-axloq me’yorlari mohiyati tushuniladi. Shu jihatdan ham bunday munosabat davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatlari jarayonida jamoada axloqiy-psixologik muhitni yaratish va davlat xizmati ish samaradorligini samarali oshirish maqsadida xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladigan umumiy qadriyatlar va qoidalar tizimi hisoblanadi.

Xulosa. Demak, davlat xizmatchilarining bilim va salohiyati yuksak ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning poydevori bo‘lib, bu, o‘z navbatida, boshqaruv funksiyalarini samarali va adolatli bajarishga xizmat qiladi.

---

[1] Комилов Н. ва б. Жамият қурилиши ва ижтимоий бошқарув. Т., “Академия”, 2007.

[2] Кимлика У. Современная политическая философия. Введение. М., “Аспект”, 2010.

[3] Равшанов Ф. Давлатнинг кадрлар сиёсати. Ўқув қўлланма, Т., “Академия”, 2012, 100-бет.

Davlat xizmatchisi boshqaruv faoliyati va dunyoqarashida axloqiy madaniyatning ustuvorligi ijtimoiy tafakkurni chuqur anglashiga, bu esa, o‘z navbatida, jamiyat ehtiyojlarini qondirishda samarali qarorlar qabul qilishga zamin hozirlaydi. Zero, keng dunyoqarash – qaror qabul qilish va ish vazifalarini samarali bajarishda ijtimoiy jarayonlarni va shaxslararo o‘zaro ta’sirlarni tushunish va hisobga olish qobiliyatidir. Ijtimoiy fikr jamiyat umumlashgan qarashlarining ustuvor xulosalari bo‘lsa, ijtimoiy fikrlash ularni anglagan holda o‘z faoliyati qarorlari va xatti-harakatlarini ularga muvofiqlashtirish bilan bog‘liq. Ijtimoiy fikrlashning, ayni vaqtda, falsafiy bo‘lishi esa xizmatchilarga o‘z vazifalarini yanada to‘g‘ri bajarishlariga va davlat institutlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu kabi, davlat xizmatchilari uchun ijtimoiy fikrlashning bir qator afzalliklari bor.[1] Avvalo, aytish lozimki, keng dunyoqarash fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, ish, jamiyat, hujjatlar, me’yorlar, strategik maqsad va manfaatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fikrlash xizmatchida o‘zini boshqa odamlarning o‘rniga qo‘yib ko‘rish qobiliyatini o‘stiradi, fuqarolarning ehtiyojlari va tashvishlarini yaxshiroq tushunishiga ko‘maklashadi, bu esa xizmatlarning yaxshiroq va adolatliroq bo‘lishiga olib keladi.

Joldasbayev Oralbay Yernazarovich (Nukus davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi assistenti)

BERDAQ IJTIMOIY-FALSAFASIY QARASHLARIDA TENGLIK VA ADOLAT KATEGORIYALARINING TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qoraqalpoq faylasufi Berdaqning falsafasida tenglik va adolat kategoriyalarining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni va roliga ta’siri, shuningdek, ularning qoraqalpoq falsafasidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinib, har tomonlama ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy munosabatlar, falsafa, madaniy va ma’naviy soha, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat, adolat, axloqiy tamoyillar.*

АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ РАВЕНСТВА И СПРАВЕДЛИВОСТИ В СОЦИО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ БЕРДАКА

Аннотация. *В данной статье подробно анализируется и всесторонне научно обосновано влияние категорий равенства и справедливости в философии каракалпакского философа Бердака на место и роль в социальной жизни общества, а также их значение в каракалпакской философии.*

Ключевые слова: *общественные отношения, философия, культурно-духовная сфера, общественные отношения, социальная справедливость, справедливость, моральные принципы.*

ANALYSIS OF THE CATEGORIES OF EQUALITY AND JUSTICE IN BERDAK'S SOCIAL-PHILOSOPHICAL VIEWS

Annotation. *This article deeply analyzes and comprehensively scientifically substantiates the influence of the categories of equality and justice in the philosophy of the Karakalpak philosopher Berdaq on the place and role of society in the social life of society, as well as their significance in Karakalpak philosophy.*

Keywords: *social relations, philosophy, cultural and spiritual sphere, social relations, social justice, fairness, moral principles.*

Kirish (Introduction). Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy falsafaning asosiy tadqiqot sohalaridan biri bo‘lib, ular jamiyatdagi shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi ongli va maqsadga yo‘naltirilgan aloqalarni o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar inson faoliyatining turli jabhalarida – iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamiz olimlardan R.Reimov, A.Berdimuratova, J.Bazarbayev, M.Niyazimbetov, S.Esnazarova, J.Biyimbetovlarning ilmiy izlanishlarida Berdaq falsafasiga oid axloqiy katergoriyalarning tahlillariga doir nazariy muammolar ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy adabiyotlarni o‘rganish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, sinergetik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, dialektik, tarixiylik va mantiqiylikning birligi, taqqoslash kabi tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan ongli, maqsadga yo‘naltirilgan aloqalar [1;304-b.]. Jamiyat taraqqiyoti insonlar o‘rtasidagi ij-

[1] Комилов Н. ва б. Жамият қурилиши ва ижтимоий бошқарув. Т., “Академия”, 2007.